

---

## Qadring baland bo'lsin, ona tilim!

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi hamda 21-oktyabr O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan Qo'shtepa tumanidagi Ixtisoslashtirilgan maktabda "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostida tantanali tadbir o'tkazildi.

O'tkazilgan tadbirda tumandagi tashkilot va muassasa vakillari, umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, iqtidorli va iste'dodli yoshlar vakillari ishtirok etdi.

Shuningdek tadbirda tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Yunusov ishtirok etib, tadbir ishtirokchilarini bayram bilan tabrikladi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining ona tilimizni ulug'lovchi she'r, qo'shiq va sahna ko'rinishlari tadbirga o'zgacha shukuh berdi.















































2024-10-21 16:46:36